



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,
*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor*



Madjidova Dildora Abduxamidovna,
*O‘zbekiston Pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

“XAVFSIZ MAHALLA” TAMOYILI ASOSIDA MIGRATSIIYA TA’SIRIDA YUZAGA KELUVCHI XATARLARNI OLDINI OLISHNING MUHIM YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada “xavfsiz hudud” va “xavfsiz mahalla” tamoyili asosida oilalar barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etishning muhim jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada migratsiya ta’sirida yuzaga keladigan xavflarning oldini olishda o’zini o’zi boshqarish organlarining vazifalari ifodalangan.

Tayanch so‘zlar: xavfsiz hudud, xavfsiz mahalla, xavfsiz bolalik, xatarlar, ommaviy madaniyat, oila, distant oila, ota-ona, bola, mehnat migratsiyasi, o’zini o’zi boshqarish organi.

Аннотация. В статье анализируются факторы, негативно влияющие на стабильность семей, и важные аспекты их устранения на основе принципов «безопасной территории» и «безопасной махаллы». Также в статье описывается роль органов самоуправления в предотвращении рисков, связанных с миграцией.

Ключевые слова: безопасная территория, безопасная махалла, безопасное детство, риски, массовая культура, семья, дистантная семья, родители, ребенок, трудовая миграция, органы самоуправления граждан.

Annotation. The article analyzes the factors that negatively affect the stability of families, and important aspects of their elimination on the basis of the principles of “safe territory” and “safe makhalla”. The article also describes the role of self-governing bodies in preventing the risks associated with migration.

Key words: safe area, safe makhalla, safe childhood, risks, mass culture, family, distant family, parents, child, labor migration, citizens’ self-governing bodies.

Kirish. Inson huquqiy davlatda yashar ekan, soliq to‘lash va o‘rnatilgan qonun-qoidalariga, o‘z fuqarolik huquq va majburiyatlariga rioya etishi, fuqaro sifatida o‘zi va o‘z farzandlari uchun xavfsiz hududda yashash imkoniyatiga ega bo‘lishi muhimdir. Davlatda xavfsizlikning ta’minlanganlik darajasi axborot maydonidagi, masalan, OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar asosida baholanadi. Bunda har bir sodir bo‘lgan noxush voqea-hodisalarga qarshi kurashish va oldini olish bo‘yicha ijtimoiy so‘rov, talab shakllanib boradi. Xavfsizlikka oid so‘rov – sodir bo‘lgan voqea-hodisa to‘g‘risidagi xabarning qay darajada

ishonchli ekanligiga qarab muvaffaqiyatli bo‘ladi, uning tahlili asosida aniq ijrochilarga nisbatan amaliy talablar ilgari suriladi. Mazkur jarayon haqiqatda samarali amalga oshishi uchun qanday chora-tadbirlar ta’minlanishi talab etiladi?

Hozirgi kunda insoniyat ekologik muammolar bilan bir qatorda, firibgarlik, kompyuter firibgarligi, terrorizm va ommaviy madaniyat kabi antropogen xususiyatdagi xatarlarga duch kelmoqda. Ular, o‘z navbatida, xavfsizlik choralari kuchaytirish – axborotni himoyalash, firibgarlikni aniqlash hamda ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibotlarning oldini olish bo‘yicha yanada jiddiy kampaniyalar, chora-

tadbirlarni talab etmoqda. Shu sababli, bunday muammolarga qanday yechim topish mumkinligi bugunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Aholi o'zini xavfsizlikda ekaniga va tashqi sharoitlarga tezkor moslasha olishiga ishonch hosil qilishi uchun ularga ehtimoliy xatarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam yetkazib borish, mavjudlarini bartaraf etish, doimiy o'zgarib boruvchi potensial salbiy omillarga moslashish, bunday xatarlarni o'z vaqtida aniqlashning samarali metodlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir.

Bunda "xavfsiz hudud" hodisasi ostida ijtimoiy tuzilmalarning eng muhim bir xususiyatini tushunamiz. Bunda eng qadimgi zamonlardan XX asr o'rtalarigacha (urush, ocharchilik, epidemiya) mavjud bo'lgan "xavfli jamiyatlar"ning aksi bo'lmish "xavfsiz hudud" va "xavfsiz mahallalar" nazarda tutiladi.

Firkimizcha, "xavfsiz mahalla" bu har bir jamiyat a'zosi uchun yaqqol xatarlar mavjud bo'lmagan mahalla ekanligini ta'kidlash mumkin. Bunda nafaqat yaqqol xatarlar, balki beixtiyor, mazkur mahalla fuqarosining irodasiga bog'liq bo'lmagan xatarlar ham nazarda tutiladi. Hattoki eng himoyalangan joyda ham hayot uchun xavf paydo bo'lish ehtimoli mavjud. Shu sababli, mazkur xatarlar ham minimal darajaga yetkazilishi mumkin bo'lgan, ya'ni nazarda tutilgan joydagi barcha imkoniyatlar xatarni maksimal darajada kamaytirishga yo'naltirilgan mahallani tasavvur qilishimiz lozim.

"Xavfsiz mahalla" tushunchasi ostida atrof-muhit, salomatlik, xavf-xatar va tahdidlardan yiroqlik xususiyatlari bilan bir qatorda, biz, avvalo, "Xavf-xatardan xoli oila", "Xavfsiz qo'shnichilik", "Xavfsiz bolalik" kabi muhim omillarga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Aynan oilaning farovonligi, osoyishtaligi, bolalarning tinchlik-xotirjamligi va barcha asosiy ehtiyojlari ta'minlanganligi asosida jinoyatlar, zo'rlash, majburlashlar, urush-janjallar, nizolar, ajrimlar sodir bo'lmaydigan yoki juda kam sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mahalla va jamiyatni barpo etishimiz mumkin. Chunki tadqiqotlar va statistik ma'lumotlardan ma'lumki, xulqi og'ishgan, uyushmagan yoshlar ko'proq noqobil, noto'liq oilalarda voyaga yetishi ham asosiy sabablardan hisoblanadi.

Shu tariqa, "xavfsiz bolalik" tushunchasi bolalar va kattalar uchun bolalarda xavfsiz xulq-

atvor madaniyatini tarbiyalash masalalari bo'yicha oldini oluvchi chora-tadbirlar majmuyidir. Bolalar o'zlari uchun atrof-muhitda qanday xatarlar, tahdidlar mavjudligini tushunishi, xavfsiz xulq-atvor qoidalarini bilishi zarur. Bunda ota-onalar o'z farzandlarining xavfsizligi uchun javobgarlik hissini chuqur anglashi muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli, ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan milliy qadriyatlarimizni saqlash va targ'ib qilish, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi orqali turli tahdidlar, zararli oqimlar, "ommaviy madaniyat" ta'siriga duchor bo'lmasligi uchun, avvalo, ota-onalar, mahalla va ta'lim-tarbiya muassasalarining mas'uliyatini ta'kidlash lozim. Turli zararli oqimlar, "ommaviy madaniyat"ning yoshlar ongini zaharlashida ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda, bolalarning ota-ona nazoratisiz yoki ota-ona qaramog'isiz qolishi holatlari ham asosiy sabablardan biri ekanligi achinarlidir. Bu ayniqsa, ota-onaning daromad izlab farzandlarini o'z yurtida qoldirib ketishi bunga yaqqol misoldir. Bunda ikki omil – xorij davlatidan "o'zga" urfodat, madaniyatning mahallalar, oilalarimizga kirib kelishi, farzandlarimiz tarbiyasiga singib borishi hamda ota-ona nazoratisiz qolgan bolalarning ta'lim-tarbiyasida ota-onaning o'z mas'uliyatini to'liq his qilmasligi, er-xotin munosabatlaridagi muammolar kabi salbiy holatlar yuz bermoqda.

A.L.Sinsarning fikricha, hozirgi zamonda oilaning yangi turi – "vaqtincha ajralgan" yoki "distant oilalar" paydo bo'lgan. Bunday oilalar so'nggi yillarda ko'p uchrab, ular oilaning muqobil shakliga ham aylanib bormoqda¹. Uning fikricha, **distant oila** – bu ota-onalardan biri oilaning sharoitini yaxshilash maqsadida uzoq davrga boshqa shahar, mamlakatlarga ketib ishlayotgan oilalar hisoblanadi. Distant oiladagi ota-onaning farzandlari bilan muloqoti doimiy bo'lmay, bu o'smarning shaxs sohasi rivojlanishidagi buzilishlarga va o'zini anglashi sohasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi².

Bolalarning to'liq oilada tarbiyalanmasligi, ularni boshqa qarindoshlarga qoldirib ketish,

¹ Цынцарь А.Л. Психолого-педагогические условия формирования самосознания подростков из дистантных семей. Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Нижний Новгород, 2015.

² Цынцарь А.Л. Психолого-педагогические условия формирования самосознания подростков из дистантных семей. Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Нижний Новгород, 2015.

ularning oilada shakllanadigan, ijtimoiy integratsiya uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni egallay olmasligi, o'z hissiyotlarini boshqara olmasligi hamda shaxslararo munosabatlarni shakllantira olmasligiga olib kelishi mumkin. Ota-onasi va yaqin qarindoshlari tomonidan e'tiborsiz qolib ketishi ularda xulq-atvorning buzilishi, xususan, deviant xulq-atvorning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Mehnat sharoitlari va xatarlar. Ko'pchilik migrant ayollar ish joyida noqulay sharoitlarga duch kelishi mumkin. Asosiy salbiy omillarga: ochiq havoda yoki ma'lum ishlab chiqarish vositalari bilan bog'liq bo'lgan noqulay ish sharoitlari, tungi ish, dam olish va tushlik uchun tanaffuslar bo'lmisligi, og'ir yuklar ko'tarish, sanitariya sharoitlarining bo'lmisligi kabilar kiradi. Shuningdek, ko'pchilik ish beruvchilar mehnat migrantlari betob bo'lganda yoki jarohat olgan taqdirda xarajatlarni o'z zimmasiga olishni istamaydi.

Ko'pgina oilalarda ma'lumot yo'qligi va bunday yordamga ehtiyoj va huquqni asoslash berishida qiyinchiliklar mavjudligi sababli kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy yordam va imtiyozlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Pul o'tkazmalari oilalarning ehtiyojlarini, xususan, bolalarning psixologik farovonligini to'liq qondirish uchun yetarli yoki yetarli emasligi tasdiqlanmagan. Ota-onalarning migratsiyasi sababli, nazoratsiz qolgan bolalar oilaning buzilishi oqibatlaridan jabr chekishi, yetarlicha g'amxo'rlik ko'rmasligi, nazoratsizlik oqibatida turli zararli oqimlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bu, ayniqsa, bolalarning psixologik va hissiy salomatligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, oiladagi voyaga yetgan erkaklarning (ota, aka-ukalar) xorijga ketib, o'z yurtidagi oilasida xotin-qizlar va kichik yoshdagi bolalarining yolg'iz qolishi oqibatida ham turli ijtimoiy, maishiy, psixologik qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligiga mahalla faollarining e'tiborini qaratishimiz zarur.

Migratsiya jarayonlari ko'lamining oshib borishi, migrantlar va ularning oila a'zolari manfaatlarini muhofazasini yanada kuchaytirish talabini ilgari surmoqda.

2021-yilning birinchi choragidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 34 695 553 bo'lib, xorijga ishlash maqsadida chiqib ketgan aholining o'rtacha soni 2018-yilda **1 209,4 ming** kishini, 2019-yilda esa **2 365,3 ming**

kishini tashkil etgani, 2020-yilda pandemiya davrida karantin cheklovlarini yumshatilganida ham **1 800 ming** kishi xorijga ishlash maqsadida yurtimizdan chiqib ketganini inobatga olganda, fuqarolarning xorijda ishlash maqsadida jo'nab ketish sur'ati keskin oshayotganligi ma'lum bo'lmoqda. Jismoniy shaxslarning O'zbekistonga transchegaraviy pul o'tkazmalarining hajmi, shubhasiz, aholining hayot darajasini oshiruvchi, mamlakatning iqtisodiy sharoitlari o'sishiga xizmat qiluvchi muhim resursdir.

Davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish doirasida O'zbekistonda migratsiya masalalariga munosabat tubdan o'zgardi. Xorijga ishlash uchun chiqib ketgan (shu jumladan, qiyin vaziyatga tushib qolgan) fuqarolarni tegishli vakolatxonalar, agentliklar tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqini himoya qilish, munosib ish sharoitini yaratish kabi choralar ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida mehnat migrantlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va reintegratsiya qilish tizimida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining o'rni va roli yanada oshib bormogda. Mazkur qarorga binoan, tuman va shahar sektor rahbarlari, fuqarolar yig'ini raislari va mehnat inspektorlari xorijga ishlash uchun ketgan fuqarolar oila a'zolarining holidan muntazam xabar olib, muammolari va ehtiyojlarini aniqlaydi hamda ularni hal etishda amaliy yordam ko'rsatadi, shuningdek, moddiy va ijtimoiy holatini yaxshilash, ularga zarur tibbiy patronaj xizmatini ko'rsatish, ipoteka kreditlari asosida uy-joylar ajratish, farzandlarining ta'lim olishidagi muammolarini hal qilish, mehnatga layoqatli oila a'zolarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashishi belgilangan.

Lekin shunga qaramay, xizmatlarning barqarorligiga erishilmaganligi sababli hali-hanuz chet elga ishlash maqsadida ketganlarning o'z yurtida qolgan oilasi orasida davlat ko'magiga muhtoj a'zolari mavjud. Bu esa oilaning boshqa a'zolari orasidan xorijga ketishni rejalashtirgan fuqarolar soni ortishiga sabab bo'ladi. Mehnat migratsiyasi jamiyat hamda oilalar ijtimoiy-psixologik muammolarining avj olishiga ham bevosita ta'sir qilgan omil hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Mehnat migratsiyasi – fuqarolarning o'zini o'zi band qilish erkinligini ta'minlashi bilan birga, qator muammo va qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Ayniqsa, o'z yashash hududida ish topa olmay yoki hayot tarzi ehtiyojlarini to'liq qoplashga imkon beruvchi barqaror daromad manbayiga ega bo'lmagan insonlar uzoq chet ellarga daromad izlab ketishga majbur bo'ladi. Bu oilaviy tizimda uni tashkil etuvchi turli munosabatlar quyidagi yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin:

- oilaviy munosabatlar tizimidagi buzilishlar: katta avlod va kichik avlod o'rtasidagi jonli muloqotning uzilishi, er-xotin munosabatida funksional buzilishlar; ishonchsizlik, ajralishlar, xiyonat;

- ota-ona va farzand munosabatlaridagi muammolar. Bu esa, o'z navbatida, bolaning shaxsi, hissiy-irodaviy sohasi, shaxslararo munosabatlari xususiyatlari, ota-ona obro'si va shu kabi boshqa munosabatlardagi muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;

- ota-ona yoki ulardan birining nazoratisiz qolgan bolalardagi shaxs tuzilmasida turli o'zgarishlar sodir bo'ladi: o'zining mansublik sohasini anglashi, yaqinlariga nisbatan hissiy bog'lanishning shakllanishidagi buzilishlar, ota-ona funksiyalarining oiladagi to'ng'ich farzandga o'tishi bilan bolalarning kun tartibi va majburiyatidagi o'zgarishlar, ta'limiy qiziqishlarining so'nishi va hokazolar.

Oilada, ota-onaning ikkisi ham, ayniqsa, onaning mehnat migratsiyasida bo'lishi, farzandlari uchun psixologik og'ir kechishi, o'zini chetga tortish, yopiqlik, xulq-atvorning ijtimoiy o'xshashligi omillarining salbiy ko'rsatkichlarga egaligini ko'rsatdi.

Jumladan, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan respublikamizda mehnat migratsiyasining oilalar barqarorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari va tahlillarning ko'rsatishicha, bugungi kunda bu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bunda, avvalo, tashqi mehnat migratsiyasining oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri kuzatiladi, jumladan:

- o'z yurtida qarindoshlari yoki noto'liq oilada qolgan mehnat migrantlari farzandlarining ta'lim-

tarbiyasi, salomatligi va ijtimoiy mavqeyiga salbiy ta'siri;

- oila instituti inqirozi, jumladan, nikoh qurish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslar (ayniqsa, ayollar) soni ortishi, ajrimlar sonining ko'payishi (real hamda fiktiv), ikkinchi oila (qabul qilgan mamlakatdagi ayollar bilan ikkinchi nikoh)³.

- 76,5 % mehnat migrantlari oilasida turmush o'rtog'ining uzoq vaqt bo'lmasligi ajrim to'g'risida qarorlariga sabab bo'lgan. 66,9 % vaziyatning barqaror emasligi sababli ko'pgina migrantlarning oilalaridagi psixologik iqlim yaxshi emas. 5% migrantlar shaxsan ularda turmush o'rtog'i bilan munosabati yomonlashganligini aytgan. Ulg'aygan farzandi xorijda ishlayotgan 82,4 % keksa insonlar esa zarur ko'mak, g'amxo'rlik va parvarishsiz qolishini bildirgan.

Shuningdek, 2020-yil davomida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan mehnat migratsiyasi ta'sirida nikohning bekor bo'lishi bilan bog'liq 302 ta da'vo ishlari ko'rib chiqilganligini ta'kidlash lozim.

Xalqaro tajribada oilaviy muammolarni hal qilish, ajrimlarning oldini olish, bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida mahalliy hamjamiyat tomonidan mediatorlar ishtirokida mediatsiya yarashtirish dasturlari, oilaviy guruhli konferensiyalar kabi bolalar va oilalar bilan ishlashning innovatsion metodi samarali qo'llanilmoqda.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi uchun optimal shart u o'zini himoyada his etadigan ishonchli oila hisoblanadi. Migrant ota-onalarning 62,6 foizini otalar, 9,6 foizini onalar va 24,9 foizini ota-onaning ikkalasi tashkil etadi. 45 % migrantlar oilalarida kamida ikki farzandi o'z yurtida qoldirib ketilgan, bunda 37 % holatda ota yoki boshqa qarindoshlarga qoldirilgan⁴, bu bolalarning ota-onasi bilan munosabatlariga hamda ularning ijtimoiylashuvi jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi:

- oila a'zolari, ayniqsa, onalar ko'pincha 6 yoshga to'lmagan, bolalar rivojlanishining muhim davrida ularni tashlab, migratsiya qilishadi. Ota-

³ Внешняя молодежная миграция в странах Центральной Азии: анализ рисков и минимизация негативных последствий. 2019. Международная организация по миграции (МОМ), – С. 62-63.

⁴ «Влияние миграции на детей в Узбекистане» ЮНИСЕФ, 2019. www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan.

onalar, ko'pincha, farzandlarini qoldirayotganida qonun bilan o'rnatilgan tartibda ularga vasiy yoki homiy o'rnatish choralari ko'rmay ketadi. Ayrimlari farzandini Bolalar uyi, Mehribonlik uylari kabi davlat tarbiya muassasasiga joylashtirish bilan muammoni hal qilishga harakat qiladi;

– bolalar parvarishini o'z zimmasiga olganlarning qariyb 45 foizida kamida ikkitadan farzand bo'lib, 29 foizida uchta yoki undan ko'p, 27 foizida bir nafar bola bo'lgan. Qarovsiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qiluvchilarning eng ko'p foizini ayollar tashkil etib, ulardan 61 foizi onalar, 29 foizi buvilar, 2 foizi otalar va 8 foizi boshqa qarindoshlardan iborat bo'lgan.

2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, mehnat migratsiyasi ota-onasi yoki qarindoshlari bo'lgan bolalarning oilasidan uzoqda to'liq davlat ta'minotidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar soni 935 nafarni, shundan 75 nafari ota-onasining har ikkalasi mehnat migrantlarini tashkil etmoqda. Ularning qariyb 46,0 foizi Samarqand (17,8 %), Xorazm (14,7 %), Farg'ona (13,3 %) viloyatlariga to'g'ri keladi. Shu jumladan, 17 ta Mehribonlik uyi va 4 ta Bolalar shaharchasida 158 nafar, 3 ta SOS Bolalar mahallalarida 20 nafari, maxsus maktab internatlarida 757 nafari tarbiyalanayotgani mehnat migratsiyasining bolalar tarbiyasiga ta'siri ulushini yaqqol ko'rsatadi. Bolalar uzoq yillar mobaynida oila muhitidan uzoqda, ota-onasi mehri va g'amxo'rligini his qilmay o'sishga majbur. Ammo bunda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 7-, 13-, 19-, 20-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 13-, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 65-moddasidagi bolaning oilada yashashga, hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun oilaviy maqbul sharoitda o'sishga bo'lgan huquqining buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onalarning migratsiyasi bolalarning hissiy-emotsional holati va xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Ota-onaning ikkisi ham, ayniqsa, onaning mehnat migratsiyasida bo'lishi oqibatida ularning 33 % ga yaqin bolalari o'zlarini baxtsiz va 21 % i xavotirlanishni his qiladi. Bundan tashqari, 33 % ga yaqin bolalarda ota-onalardan biri yoki ikkisining yo'qligi tufayli uy ishlari miqdori ortadi va bu ham ularning kayfiyati, jismoniy hamda psixologik salomatligiga ta'sir qiladi.

Bunday oiladagi bolalarda turli psixosomatik kasalliklar (yuqori nafas yo'llari surunkali kasalliklar, allergik kasalliklar, asab-ruhiy buzilishlar, gavda tuzilishidagi deformatsiyalar, teri kasalliklari, surunkali anemiya, gipertireoz va h.k.) rivojlanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, ota-onasining ikkisi ham xorijda ishlagan davrida o'z yurtida qoldirib ketilgan bolalarining sog'lig'ini nazorat qilish, kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash, salomatligini tiklash bo'yicha tegishli mutaxassislarning hamkorligi, yordami va mas'ulligi belgilanmagan.

Migrantlar bolalarining kelajakdagi salomatligi xavf ostida bo'lishi mumkinligini ta'kidlash lozim, chunki 1 yoshgacha bo'lgan taxminan 14 % bolalar vaksinalar olmagan, bu ehtimol vasiylarning xabardor emasligi yoki immunologiya markazlariga borish imkonining yo'qligi bilan bog'liq. Bolalarning qariyb 37 foizi qarindoshlari qaramog'ida yashaydi. Vasiylarning faqatgina 28 foizi bolalar uchun ijtimoiy xizmatlar mavjudligi haqida xabardor bo'lib, ularning atigi 19 foiziga turli xil xizmatlar tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatiladi⁵.

Migratsiya voyaga yetmaganlarning onalik mehrini ko'rmay o'sishi bilan bir qatorda, qarindoshlar tomonidan tahqirlanib o'sishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ota-ona yaqinlariga farzandini ishonib qoldirib ketgan, ularning ta'minoti uchun pul jo'natib turgan bo'lsa-da, bolalarning yosh, individual xususiyatlari, oilada o'rnatilgan muomala xususiyati, oiladagi kattalarning bolalarga nisbatan e'tibori, g'amxo'rlik darajasi – ularning ijtimoiylashuviga turlicha ta'sir qilgan. Bunda quyidagi pedagogik-psixologik omillar ta'sirini ifodalash mumkin:

– oila a'zolarining bolaga nisbatan jismoniy, psixologik qo'pol munosabat ko'rsatishi;

– ota-onasi yo'q vaqtida 12 % bolalar imtiyozlardan mahrum qilingan, 3 % telba, dangasa va shu kabi so'zlar bilan kamsitilgan, 8 % bolalarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lingan. 7 % bolalarning aytishicha, ota-onalari safarga ketganlaridan so'ng vasiylar tomonidan qo'llaniladigan jismoniy jazolar ularning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun turli xavflar tug'ilishiga sabab bo'ladi;

⁵ «Влияние миграции на детей в Узбекистане» ЮНИСЕФ, 2019. www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan.

– kun davomida bolaning nimalar bilan bandligi nazorat ostiga olinmaganligi va boshqalar.

Ota-ona va farzand munosabatlariga salbiy ta'sir qilgan quyidagi **pedagogik-psixologik** omillarni ajratish mumkin:

– bolaning kichik yoshligidan oilaning boshqa a'zolariga qoldirilishi;

– oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar;

– ota-onaning xorijda ishlash davrining uzoqligi;

– bolalar ongiga oilasining boshqa a'zolari tomonidan ota-onasiga nisbatan norozilik hissining singdirilishi;

– qaynona, qaynegachi, qaynsingillar va kelin munosabatlaridagi ziddiyatlar bolaning onaga nisbatan kayfiyati, munosabatiga singdirilishi;

– ota-ona tomonidan jo'natilayotgan moddiy boyliklarning bola ixtiyoriga berilishi yoki uzoq vaqt mobaynida bolaning moddiy ta'minotsiz qolishi;

– bolaning tarbiyasida qiyinchiliklarga uchragan qarindoshlari uni Mehribonlik uyiga yoki uning tarbiyasi sababli ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi va hokazo.

Alohida xorij davlatlarida ishga joylashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bolalar to'g'risidagi g'amxo'rlik, madaniy dasturlar bo'yicha konsultatsiyalar beradigan ko'p funksiyali integratsiya markazlari amaliyoti keng tarqalgan. Bu markazlar va boshqa tashkilotlar barcha migrantlarni qamrab olmaydi, balki muayyan maqsadli auditoriya bilan ishlaydi.

Mehnat migratsiyasida birga bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'lim hamda sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanadi, ularning mehnati ota-onalari tomonidan ekspluatatsiya qilinadi, bolalarning o'zlari esa o'zga madaniy muhitda tarbiyalanadi, bu jarayon milliy qadriyatlar va an'analarni idrok etishga, hatto demografik ustanovkalarining o'zgarishigacha ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xorijga ishlash uchun ketgan fuqarolarning farzandlarini hisobga olishning yagona tizimi – xorijga o'zi bilan olib ketilgan bolalarni hisobga olish, shuningdek, o'z yurtida qoldirib ketilgan bolalarni hisobga olish ma'lumotlar bazasi joriy etilmagan. Bu mazkur bolalarning ta'limi, ijtimoiy himoyasi, huquq va manfaatlarini ta'minlanishi, nazorati va monitoringini yuritishga imkon bermaydi.

Xorijiy davlatlarda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda migratsiya sohasida davlat xizmatlarini taqdim etish va davlat vazifalari ijrosini takomillashtirish, ma'lumotlar bazasini modernizatsiyalash, davlat va munitsipal xizmatlarni taqdim etish uchun ko'p funksiyali markazlar tarmog'ini rivojlantirish, migratsion vaziyatni tahlil etish uchun ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Ilg'or xorij tajribasida dunyoning turli mamlakatlarida mehnat attashesi maqomidagi o'z xodimlari tarmog'i orqali ish beruvchi tomonidan taklif etiladigan sharoit, ish haqi, mehnat sharoiti, shartnomaning tugatilishi, baxtsiz hodisa yuz berish holatlari to'g'risida ma'lumotlar to'planadi va ijtimoiy yordam turlari manzilli ko'rsatiladi.

Mamlakatimizda migrantlar manfaatlarining kafolatlanishi quyidagi yordam turlarini ko'rsatishga asoslanadi:

– xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida zo'ravonlik, majburiy mehnat va kamsitishdan jabrlangan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, moddiy qiyinchiliklarga duch kelgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, tirikchilik uchun mablag'siz qolgan fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, shuningdek, ularga moddiy yordam ko'rsatish;

– mehnat migratsiyasida bo'lgan davrda jarohatlanish, baxtsiz hodisa sababli tibbiy xizmat ko'rsatish talab etilgan fuqarolarga, ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar haqini mehnat migranti hisobidan to'lash imkoniyati bo'lmagan hollarda to'langan mablag'lar ushbu fuqarolar tomonidan keyinchalik qoplab berilish sharti bilan tibbiy xizmat ko'rsatish;

– ishga joylashgan davlatdagi tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangan hollarda respublikadan tashqarida mehnat migratsiyasida bo'lgan davrda vafot etgan fuqarolarning jasadlarini, shuningdek, xorijdagi mehnat faoliyati vaqtida mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib kelgan shikastlanish yoki jiddiy jarohatlangan fuqarolarni olib kelish;

– mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga tashkillashtirilgan tarzda ilgari yuborilgan va ishga joylashgan mamlakatning qonun hujjatlarini buzish oqibatida, ushbu mamlakat hududidan chiqarib yuborilgan fuqarolarni, to'langan mablag'lar, ushbu fuqaro hisobidan keyinchalik qoplab berilishi sharti bilan, shuningdek, kelishilgan mehnat sharoitlari

chet ellik ish beruvchilar tomonidan ta'minlab berilmagan fuqarolarni qaytarish;

– respublika hududlarida xorijga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldingi moslashtirish, kasbiy tayyorlash. Xorijiy tillarga o'qitish va bilim darajasi yuzasidan test sinovlarini o'tkazish, fuqarolarning kasbiy malakasini tasdiqlash markazlarini tashkil etish va jihozlash.

Yuqorida tahlil qilingan mehnat migratsiyasining oilalar barqarorligiga ta'sirini aniqlash, qiyin vaziyatlardagi oilalarga kompleks ko'maklashish maqsadida fuqarolar yig'ini raisi, uning huquq-tartibot masalalari hamda oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari va boshqalar tomonidan quyidagi asosiy ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlash va hisobini yuritish, ularning chet elda bo'lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib borish.

2. Xorijga ishlash uchun jo'nab ketayotgan oilalar farzandlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish.

3. Ota-ona va vasiylarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha huquq, majburiyatlari ta'minlanishini nazorat qilish.

4. Mehnatga layoqatli oila a'zolari va xorijdan qaytganlarning ish bilan ta'minlanishida yordam ko'rsatish.

5. Oila a'zolarining holidan muntazam xabar olish, muammolarini aniqlash, muammolar bo'yicha maslahat berish, ularni hal etishda amaliy yordam ko'rsatish.

6. Ota-onasi migratsiyadaligida bolalarning taqdirini nazorat qilib borish (vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda).

7. "Oila muqaddas" ezgu g'oyasini targ'ib qilish, oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitini yaxshilashga ko'maklashish.

8. Uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish va boshqalar.

Yakuniy qism. Yuqoridagi tahlillar asosida ta'kidlash mumkinki, fuqarolar mehnat migratsiyasidan o'z yurtiga qaytishi jarayoni muvaffaqiyatli ta'minlanishi, ularning o'z yurtida qolgan oilalari, farzandlarining holidan xabardor bo'lish, xatar guruhidagi oilalarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini samarali tashkil etish orqali "Xavfsiz mahalla" tamoyilining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan oilalar va bolalar xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Цынцарь А.Л. Психолого-педагогические условия формирования самосознания подростков из дистантных семей. Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Нижний Новгород, 2015.
2. Внешняя молодежная миграция в странах Центральной Азии: анализ рисков и минимизация негативных последствий. 2019, Международная организация по миграции (МОМ). – С. 62-63.
3. «Влияние миграции на детей в Узбекистане» ЮНИСЕФ, 2019. www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan.
4. «Влияние миграции на детей в Узбекистане» ЮНИСЕФ, 2019. www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan.